

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI XUZURIDAGI  
FIZIKA -MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
ILMIYDARAJASINI BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**YUSUPOV FAXRIDDIN TOJIMAMAT O‘G‘LI**

**ZnO, ZnO:B VA n-ZnO/p-Si ASOSIDAGI YUPQA PLENKALI  
STRUKTURALARNING ELEKTROFIZIK VA OPTIK XOSSALARI**

**01.04.07 - Kondensirlangan holat fizikasi**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2025

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
physical-mathematical sciences**

**Yusupov Faxriddin Tojimamat o‘g‘li**

ZnO, ZnO:B va n-ZnO/p-Si asosidagi yupqa plenkali strukturalarning elektrofizik va optik xossalari.....3

**Юсупов Фахриддин Тожимамаат угли**

Электрофизические и оптические свойства тонкопленочных структур на основе ZnO, ZnO:B и n-ZnO/p-Si.....23

**Yusupov Fakhriddin Tojimamat ugli**

Electrophysical and Optical Properties of Thin-Film Structures Based on ZnO, ZnO:B and n-ZnO/p-Si .....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....49

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI XUZURIDAGI  
FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
ILMIYDARAJASINI BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**YUSUPOV FAXRIDDIN TOJIMAMAT O‘G‘LI**

**ZnO, ZnO:B VA n-ZnO/p-Si ASOSIDAGI YUPQA PLENKALI  
STRUKTURALARNING ELEKTROFIZIK VA OPTIK XOSSALARI**

**01.04.07 - Kondensirlangan holat fizikasi**

**Fizika-matematika fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/FM1201 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ispm.uz](http://www.ispm.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sultanov Nomanjon Akramovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentalar:**

**Iliyev Xalmurat Midjitovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Sabirov Salim Sattiyevich,**  
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiyaning himoyasi Farg'ona davlat texnika universiteti huzuridagi falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «28» 08 soat 14<sup>00</sup> daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150107, Farg'ona sh. Farg'ona k. 86 uy. Tel: (+998 73) 241-12-06, faks (+998 73) 241-12-06, e-mail: [uzferfizika@mail.ru](mailto:uzferfizika@mail.ru), kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat texnika universitetining axborot-resurs markazi ilmiy-uslubiy bo'limida tanishish mumkin. ( raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150107, Farg'ona sh. Farg'ona k. 86 uy. Tel: (+998 91) 328-32-69).

Dissertatsiya avtoreferati 20 \_\_\_ yil « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(20 \_\_\_ yil « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ daqiqa \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).



*[Handwritten signatures of N.X. Yuldashev, B.J. Axmadaliyev, and S.M. Otajonov]*

**N.X. Yuldashev**

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi  
Ilmiy Kengash raisi, f-m.f.d., professor

**B.J. Axmadaliyev**

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi  
Ilmiy Kengash ilmiy kotibi, f-m.f PhD,  
dotsent

**S.M. Otajonov**

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi  
Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raising o'rinbosari, f-m.f.d., professor.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda nanostukturali mikroelektron qurilmalarga kondensirlangan holat fizikasiga oid ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqot jarayonlarida alohida ahamiyat berilmoqda. Dunyo miqyosida zamonaviy optoelektronika talablariga mos, yuqori fotoelektrik sezgirlik va aniqlikka ega ko'p funksiyali yarim o'tkazgich yupqa plenkali yangi strukturalar yaratish yoki mavjudlarini yanada takomillashtirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda quyosh elementlari, yorug'lik diodlari, fotodatchiklar va boshqa fotoelektron asboblar ishlab chiqarishda kremniy, germaniy va galliy arsenidi kabi klassik materiallar o'z funksional imkoniyatlarini deyarli to'liq namoyon etib bo'lgan. Shu jihatdan mazkur masalani hal etishda metalloksidlar asosidagi materiallarning yangi modifikatsiyalarini yaratish va ulardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda rux oksidi (ZnO) asosidagi yarimo'tkazgich materiallariga Bor (B) elementini kiritish orqali materialning fizik xossalarini o'zgartirish, uning xususiyatlarini boshqarish va ushbu material asosida optoelektron qurilmalar, jumladan, quyosh elementlari, fotodiodlar hamda ultrabinafsha(UB) diapazonida ishlaydigan datchiklarni yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur yo'nalishda, kirishma sifatida B elementidan foydalanib ZnO yupqa qatlamlarini termik bug'latish usuli bilan legirlash, ZnO:B yupqa qatlamlarini hosil qilishning maqbul texnologik sharoitlarini aniqlash, tarkibida B kirishmasi mavjud bo'lgan ZnO materialining elektr, optik va fotoelektrik xossalarini optimallashtirish, ZnO asosida yangi modifikatsiyalar hosil qilish hamda ularning kristall panjara parametrlarini aniqlash bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, B kirishmasi kiritilgan ZnO yupqa qatlamlarining elektr o'tkazuvchanligi va optik taqiqlangan zona kengligini boshqarish, ZnO:B/p-Si asosidagi geterostrukturalarning fizik xossalarini, fotoelektrik samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda yuqori samaradorlikka ega optoelektron qurilmalarni yaratish, jumladan, fotodiodlar, yorug'lik datchiklari va quyosh elementlari sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lamlil ilmiy-texnik tadqiqotlar olib borilmoqda. "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi"<sup>1</sup>da (2022–2026 yillar) fan va innovatsiyalarni ilgari surish, zamonaviy texnologiyalar asosida yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali iqtisodiyotning texnologik qayta qurollanishini ta'minlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda, xususan, rux oksidi (ZnO) asosidagi yarimo'tkazgich qatlamlarini B elementi bilan legirlash, yuqori sezuvchanlikka ega ZnO:B asosidagi geterostrukturalarni yaratish va ularning asosida fotosezgir hamda energiya tejoychi qurilmalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son «"O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida»<sup>2</sup>gi Farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi

<sup>1</sup> Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi (2022–2026)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

PF-60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son «Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori, 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-son «Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori, shuningdek ushbu faoliyatga taalluqli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada o‘z hissasini qo‘shadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlanishining IV. “Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish, nanotexnologiya, fotonika va boshqa zamonaviy texnologiyalar asosida yangi texnologiyalar va qurilmalar ishlab chiqish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi kunda yarimo‘tkazgichli yupqa qatlamlar, xususan ZnO yupqa qatlamlarini olish va ularning fizik xossalarini tadqiq qilish dunyo ilmiy markazlarida faol o‘rganilmoqda. Jumladan, AQShda J. Brinker guruhi ZnO nanoqatlamlarining tuzilmaviy va optik va elektrofizik xossalarini batafsil o‘rgandi. Yaponiyada Y.Shichi va S.Tanimato Si tagliklarda TiO<sub>2</sub>, ZrO<sub>2</sub> va ZnO qatlamlari asosida sensorlar, Rossiyada S.I.Rembeza guruhi ZnO va SnO<sub>2</sub> qatlamlari asosida quyosh elementlari va gaz sensorlari yaratdilar.

Shuningdek, mamlakatimizda akademik Zaynabidinov S.Z. boshchiligidagi ilmiy jamoa tomonidan metalloksid plenklarini olishning bir qator usullari ishlab chiqilib, bunday usullar asosida nanoo‘lchamdagi plenklar olish hamda ularni tashkil etuvchi elementlarning tarkibini o‘zgartirish, olinish texnologiyalarini takomillashtirish orqali turli maqsadlar uchun sezgir elektron qurilmalar yaratish imkoniyatlari ko‘rsatib berishda salmoqli natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, ZnO, ZnO:B va n-ZnO/p-Si asosidagi yarimo‘tkazgichli strukturalarning amaliy qurilmalardagi funksional barqarorligi, xususan, ularning harorat, yorug‘lik va tashqi elektr maydon ta‘siridagi elektr-optik xossalari, shuningdek, interfeys holatlari va kontakt qarshiligining vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi kabi muammolar yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘likligi.** Dissertatsiya ishi Farg‘ona davlat texnika universitetida, xususan, universitetning 2022–2027-yillardagi istiqbolli ilmiy rejasiga muvofiq “Kremniy asosida ZnO va AlB<sub>10</sub> geterostrukturalarni texnologik olish usullarini yaratish va ulardan yorug‘lik diodlari tayyorlash” loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** barqaror elektrofizik, optik hususiyatli ZnO va ZnO:B va n-ZnO/p-Si yupqa plenkali strukturalarni termik bug‘latish orqali olish texnologiyasini takomillashtirish va ularning elektrofizik va optik xossalaridagi

yangi qonuniyatlarni o'rnatishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

havoda va yuqori vakuumli muxitda bug'latish usullari bilan ZnO va ZnO:B yupqa qatlamlarini olish texnologiyasining optimal parametrlarini ishlab chiqish;

ZnO va ZnO:B yupqa qatlamlarning mikrostrukturasi va sirt xossalarini tadqiq etish, ularning elektrofizik va optik xususiyatlaridagi yangi qonuniyatlarni aniqlash;

yupqa plenkali n-ZnO/p-Si geterostrukturani texnologik olish metodikasini ishlab chiqish va uning strukturaviy, elektr hamda optik xossalarining kompleks tadqiqoti asosida optoelektron asboblari uchun optimal parametrlarni ishlab chiqish;

n-ZnO/p-Si geteroo'tishli diod strukturaning elektrofizik, fotoelektron va optik ishchi xarakteristikalarini chuqur tadqiq qilish hamda optoelektron qurilmalarda samarali qo'llash uchun optimal ish rejimi parametrlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ZnO va ZnO:B va n-ZnO/p-Si yupqa plenkali strukturalar tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** ZnO, ZnO:B va n-ZnO/p-Si asosidagi yarimo'tkazgichli yupqa qatlamlarning elektrofizik va optik xossalarini o'rganish, bu qatlamlarning struktura, elektr, va optik xususiyatlarini B elementi bilan legirlash orqali yaxshilash, shuningdek, olingan geterostrukturalarning yuqori samaradorlikka ega optoelektron qurilmalarda qo'llanilish imkoniyatlarini aniqlash.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda yupqa qatlamlar termik bug'latish texnologiyasi yordamida hosil qilinib, ularning tuzilmasi rentgenodifraktometr usuli bilan tahlil qilindi. Sirt morfologiyasini chuqur o'rganish uchun skanerlovchi elektron mikroskop va atom kuch mikroskopiyasi ishlatildi. Spektral xususiyatlar optik spektroskopiya usullari orqali baholandi va geterostrukturalarning VAX yuqori aniqlikda o'lchovchi maxsus qurilmalardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

barqaror elektrofizik, optik hususiyatli ZnO va ZnO:B yupqa polikristal qatlamlarni olishning optimal parametrlari: 1) havoda Zn kukunlarini 575°C da 1 min termik bug'latish: taglik harorati 300°C, qalinlik 1.2-1.5 mkm; 2) 1-5 % B qo'shilgan ZnO kukunlarini 10<sup>-4</sup> mm.sim.ust vakuumda 30 s termik bug'latish: tigel harorati 1600°C, qalinlik 0.7-0.9 mkm texnologik sharoitlarda takomillashtirilgan;

ilk bor ZnO:B qatlamlarida B kirishmasining 3 % gacha ortishi kristal don o'lchamlarini 130-150 nm dan 80-100 nm gacha kamayishiga, solishtirma qarshilikni 80 Ω·cm dan 1.2 Ω·cm gacha pasayishiga va harakatchanligini deyarli 5 barobarga (ZnO uchun 2-3 sm<sup>2</sup>/V·s, ZnO:B uchun esa 10-12 sm<sup>2</sup>/V·s) orttirishiga olib kelishi asoslangan;

n-ZnO:B yupqa qatlam fotoluminestsensiya spektrida 350-400 nm va 570-620 nm optik diapazonlarida dublet spektral chiziqlar kuzatildi va B konsentratsiyasi ortishi bilan spektral chiziqlarning intensivligi pasayishi, yarim kengligining ortishi, katta to'lqinlar sohasiga siljishi aniqlandi hamda ular mos holda zona-zona va B kirishmasining donor sathi - valent zona rekombinatsion nurlanishi bilan asoslangan;

Ni-ZnO:B/pSi-Al geterostrukturaning VAX ni turli temperaturalarda tok tashuvchi kirishmali fazoviy zaryadlar ionlashish energiyasi  $E_i=0.45$  eV,

konsentratsiyasi  $N_e=3.82 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$  hamda Shottki to'siq balandligi  $\phi_B = 0,75 \pm 0,085 \text{ eV}$  qiymatda aniqlangan va ushbu parametrlar o'rtasidagi bog'liqlik asosida monopolyar injeksiya mexanizmini tavsiflovchi fizik model ishlab chiqilgan;

Birinchi marta Ni-ZnO:B/p-Si-Al geterostrukturasida yorug'lik intensivligi oshishi bilan 1000 Lx da maksimal fototok (0,53 mA), 1500 Lx da esa maksimal foto-kuchlanish (92 mV) kuzatilishi va bu holat injeksion kambag'allanish effekti (asosiy tok tashuvchilarining kamayishi) asosida strukturaning fototok hosil qilish mexanizmi asoslangan

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Bug'latish usulida ZnO va B bilan legirlangan ZnO yupqa qatlamlarini olish texnologiyasi bug'lanish harorati, taglik temperaturasi, bug'lanish vaqti hamda vakuum darajasini tanlash orqali optimallashtirilgan;

ZnO tarkibiga 3% gacha Bor kirishmasi kiritish orqali solishtirma qarshiligi  $5 \Omega \cdot \text{sm}$  gacha pasaygan, harakatchanligi  $12 \text{ sm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$  gacha oshgan va fotosezgirliги yuqori bo'lgan yupqa qatlamlar olindi hamda ularni ultrabinafsha detektorlar, yorug'lik sezgichlar va past quvvatli diodli qurilmalarda amaliy qo'llash mumkinligi asoslangan;

n-ZnO/p-Si geterostrukturalarining VAX lari asosida diodga xos xususiyat, yuqori to'g'rilash koeffitsienti ( $\approx 250$ ), past teskari oqim va yorug'lik sezuvchanlik aniqlanib, ushbu strukturalar asosida yarimo'tkazgichli diodlar va fotodetektorlar yaratish uchun amaliy jihatdan qo'llash mumkinligi asoslangan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:** olingan natijalar xalqaro standartlarga mos keladigan zamonaviy asbob-uskunalar, jahon amaliyotida keng qo'llanilishi bilan tadqiqotchilar ishonchiga sazovor bo'lgan elektr va fotosezgir asboblari, IQ va XRD-6100, Park Systems NX10 Atom kuch mikroskopi, Solver Next skanerlovchi zond mikroskopi, Shimadzu-6100 spektrometri, Shimadzu RF-6000 spektrofluorofotometr va sinalgan texnologiyalar asosida olingan natijalardan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** ZnO yupqa qatlamlarning eksperimental natijalarining **ilmiy** ahamiyati n-ZnO/p-Si geterostrukturalarda elektrofizik va fotoelektrik jarayonlar, tok o'tish mexanizmlari hamda yuqorida keltirilgan effektlarning fizik mohiyati haqidagi ilmiy asoslangan umumiy tasavvurlar hosil qilish uchun yangi ilmiy-nazariyasi va amaliyoti rivojiga qo'shgan xissasi bilan izohlanadi .

Tadqiqot natijalarining **amaliy** ahamiyati n-ZnO:B/p-Si geterostrukturalaridagi elektrofizik va fotoelektrik jarayonlar asosida temperatura va yorug'likka sezgir yarimo'tkazgichli diodlari, fotodetektorlar kabi ko'p funksiyali elektron asboblari ishlab chiqarish imkonini beruvchi texnologik asoslarning yaratilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** ZnO va ZnO:B yupqa plenkalarini olish usullarini takomillashtirish, olingan geterostrukturalarning fizik xossalarini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

A.V. Rjanov nomidagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi instituti (Rossiya FA Sibir bo'limi)da 2019–2023 yillarda amalga oshirilgan №19-52-12001-sonli "Birinchi

turdagi to'g'ri bo'lmagan o'tishli yarimo'tkazgich nanostrukturalarda eksitonlar va zaryad tashuvchilar dinamikasi" nomli fundamental loyiha doirasida ZnO:B qatlamlarida bor kontsentratsiyasining elektrofizik va optik ko'rsatkichlarga ta'siri, jumladan fotolyuminesensiya spektridagi UB nurlanishi va volt-ampere xarakteristikalarini bo'yicha olingan natijalar eksiton holatlari va zaryad tashuvchilar harakatchanligini nazariy tahlil qilish imkoniyatini bergan;

Andijon mashinasozlik instituti va Xitoy Xalq Respublikasining Shimoliy Xitoy Texnologiyalar Universiteti bilan hamkorlikda 2022–2023 yillarda amalga oshirilgan "Katta ma'lumotlarga asoslangan intellektual qayta tiklanuvchi energiya tarmog'i tizimini tadqiq qilish va qo'llash" (loyiha № MUK-2021-40) fundamental loyihasi doirasida n-ZnO/p-Si geterostrukturalarning yorug'lik ta'siridagi elektr va optik xossalari, jumladan turli yorug'lik intensivliklarida fototok o'zgarishini modellashtirish va tahlil qilish orqali yorug'lik ta'sirida elektr tok hosil qilish jarayoni samaradorligini baholash usulini takomillashtirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqolalar, jumladan 3 ta respublika va 4 ta Scopus va Web of Science bazalarida indekslanuvchi chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Dissertatsiyaning kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi qisqacha asoslab berilgan, uning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan bog'lanishi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, metodlari, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ilmiy ishlar, shuningdek dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "**ZnO, ZnO:B asosidagi yupqa qatlamlar va geterostrukturalar: tadqiqot holati va istiqbollari**" nomli birinchi bobida ZnO, ZnO:B asosidagi yupqa qatlamlarni o'stirish usullari, elektrofizik, optik va tuzilmaviy xarakteristikalarini hamda ZnO/Si geterostrukturalarining fizik xususiyatlari va optoelektronikada qo'llanilishi bo'yicha qisqacha adabiyotlar sharhi keltirilgan. Ular asosida yupqa qatlamlar va geterostrukturalardan yarimo'tkazgichli diodlar, quyosh elementlari moslamalarida muvaffaqiyatli qo'llanilishi asosida yangi turdagi rux oksidli yarimo'tkazgich materiallarini olish va amaliy qo'llanilishi bo'yicha mavjud ma'lumotlar tahlil qilingan hamda dissertatsiya ishining maqsadi


va vazifalari shakillantirilgan.

Dissertatsiyaning “**ZnO asosidagi yupqa qatlamlar olish texnologiyasi va ularning elektrofizik hamda optik xususiyatlari**” nomli ikkinchi bobida ZnO asosidagi yupqa qatlamlar olinish texnologiyasi, konstruksiyalarning tuzilishi, elektrofizik va optik xarakteristikalarining eksperimental tadqiqotiga bag‘ishlangan. ZnO va ZnO:B yupqa plenkalarini olish texnologiyasi ekologik toza, arzon va iqtisodiy jihatdan kamharj hamda bunday texnologiyalar yordamida zamonaviy mikro va optoelektronikada qo‘llaniladigan istiqbolli materiallar olish mumkinligi aniqlangan. Shuningdek, ushbu bobda ZnO:B va ZnO yupqa qatlamlarini termik usulda olish texnologiyasining optimal shart-sharoitlari: 1-usulda Zn kukunlari havo bosimida, 9 nm/s tezlikda, 30 daqiqa davomida sekin qizdirish va 1 daqiqa davomida 575°C temperaturada bug‘latish hamda taglik xaroratini 300°C qilish, shuningdek, bug‘latuvchi tigel va tagliklargacha bo‘lgan masofa 12 sm qilib belgilash; 2-usulda esa ZnO:B kukunlari  $10^{-4}$  mm.sim.ust bosimida, 1 soat davomida sekin qizdirish va 30 sekund davomida 1600°C temperaturada bug‘latish hamda taglik xaroratini 300°C qilish, shuningdek, bug‘latuvchi tigel va tagliklargacha bo‘lgan masofa 14 sm qilib belgilash aniqlangan.

ZnO asosidagi yupqa qatlamlarni B kirishmasi bilan modifikatsiya qilish va ularning fizik-kimyoviy hamda optik xossalarini maqsadli o‘zgartirish bo‘yicha olib borilgan eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kirishma kiritish ZnO ning kristall tuzilishi va yuzasining morfologiyasiga sezilarli ta’sir qiladi. Rentgen nurlarining difraksiyasi (RND) va skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida o‘tkazilgan tahlillar ZnO ning kristall tuzilishi va morfologiyasidagi o‘zgarishlarni aniqlashga imkon beradi. Termik ishlov berish orqali ZnO qatlamlarining kristall tuzilishidagi nuqsonlar kamaydi, 300°C temperaturada esa (002) tekislik bo‘yicha ko‘proq yo‘nalgan kristall donlar kuzatildi. B kirishmasi



**1-rasm. Shisha taglikka Zn metalini havoda termik bug‘latib olingan ZnO yupqa qatlamining RND spektri.**




**2-rasm. Vakumda termik bug‘latish usuli bilan shisha taglikka olingan ZnO:B plenka uchun RND spektri.**

kiritilgan ZnO qatlamlarida difraksion cho‘qqilarning kengayishi va siljishi B atomlarining ZnO panjarasiga kirganligini ko‘rsatadi. B kirishmasi konsentratsiyasining ortishi bilan kristallitlar o‘lchami kamayishi aniqlandi. Bu esa

panjara ichki deformatsiyalarini ortshiga olib keladi, natijada materialning elektr va optik xususiyatlarini maqsadli o'zgartirishga yordam beradi. Rentgen nurlarining diffraksiyasi (RND) olingan natijalar quyidagicha bo'ldi:

1-rasmda 300°C temperaturada termik ishlov berilgan ZnO yupqa qatlamining RND spektri ko'rsatilgan. Asosiy diffraksion cho'qqi  $2\theta = 34.4^\circ$  (002) tekisligida joylashgan bo'lib, bu ZnO ning yuqori kristall tuzilishini bildiradi. Ikkilamchi cho'qqilar  $2\theta = 24^\circ$  va  $37^\circ$  atrofida joylashgan va geksagonal tuzilmani tasdiqlaydi. Termik ishlov berish natijasida cho'qqilarning keskinligi va intensivligi ortdi, bu esa kristall tuzilmaning takomillashganini ko'rsatadi.

2-rasmda ZnO:B qatlamida (100), (002), (102), (110) va (101) tekisliklarida diffraksion cho'qqilar kuzatildi. B kirishmasi kiritilishi bilan cho'qqilar siljishi va kengayishi, B atomlarining ZnO panjarasiga kirganligidan va shu tufayli kristal panjarada ichki deformatsiyalar yuzaga kelganligidan dalolat beradi.




**3-rasm. Sof va B bilan legirlangan ZnO yupqa qatlamlarining SEM tasviri: a-sof ZnO, b-1%, c-3%, d-5% B kirishmasi kiritilgan.**

3-rasmda shisha tagligiga yuqori vakumda termik bug'latish orqali olingan ZnO (a) va ZnO:B (b, c, d) yupqa qatlamlarining SEM tasvirlari berilgan. Undan ko'rinadiki, ZnO kristal donlarning o'lchamlari 60-150 nm oralig'ida o'zgaradi. Odatda plenka sirtining yuqori energetik holati kristal donlarning o'lchamini minimallashtirishga olib keladi, bu esa kristallitlarning o'sish yo'nalishi va panjaradagi ichki deformatsiyalarga ta'sir ko'rsatadi. Sof ZnO kristall donlari orasidagi o'rtacha masofa 100 nm ni tashkil etib, elektron harakati va solishtirma qarshiligini oshiradi. Yuqori teksturalik UB yorug'likni ko'proq tarqatadi, bu esa optoelektron qurilmalar samaradorligini oshiradi. ZnO:B plenkalarining SEM tasvirlari B kirishmasining 1%, 3%, va 5% miqdorlariga mos keladi. 1% B kiritilgan ZnO da kristal donlar o'lchami 120-130 nm gacha kamayib, elektr o'tkazuvchanlik oshadi. 3% B kiritilganda donlarning o'lchami 100-120 nm ga kamayib, solishtirma qarshilik  $1.2 \Omega \cdot \text{cm}$  ga tushadi. 5% B kiritilishi kristal donlarni 60-100 nm ga kamaytirib, sirtning notekisligini oshiradi va solishtirma qarshilikni  $5 \Omega \cdot \text{cm}$  ga

orttiradi.

4-rasmda ZnO:B yupqa qatlamining B kirishmasi miqdoriga qarab elektr xususiyatlarining o'zgarishini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, kirishma konsentratsiyasining ortishi materialning elektr o'tkazuvchanligi va zaryad




**4-rasm. ZnO:B yupqa plenkalarida kirishma kiritish darajasiga bog'liq holda qarshilik va zaryad tashuvchi zarralar konsentratsiyasining o'zgarishi.**


tashuvchilar konsentratsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Rasmdan ko'rinadiki, sof ZnO ning elektr o'tkazuvchanligi past bo'lib, solishtirma qarshilik  $\sigma=90 \Omega \cdot \text{sm}$  atrofida. 1% B kirishmasi  $\sigma$  ni  $30 \Omega \cdot \text{sm}$  ga tushiradi, elektronlar konsentratsiyasini esa  $n=3 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$  gacha oshiradi. 2% kirishmada  $\sigma$   $22 \Omega \cdot \text{sm}$  gacha pasayib, konsentratsiya  $12 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$  ga yetadi. Eng optimal kirishma miqdori 3% bo'lib, solishtirma qarshilik  $5 \Omega \cdot \text{sm}$  gacha kamayadi va zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi  $20 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$  ga yetadi. Biroq, 5% kirishmada solishtirma qarshilik  $15 \Omega \cdot \text{sm}$  ga oshib, tashuvchilar konsentratsiyasi  $7.5 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$  ga pasayadi, bu yuqori kirishma konsentratsiyasining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shunday qilib, 3% B kirishmasi ZnO yupqa qatlamlarining elektr xususiyatlarini yaxshilashda eng samarali hisoblanadi, ammo yuqori kirishma konsentratsiyasi materialning sifatini pasaytirishi mumkin.

Fotoluminessensiya (FL) tahlillari (5,6-rasmlar) ZnO yupqa qatlamlarining optik xususiyatlarini baholashda muhim ahamiyatga ega. 5-rasmda havoda Zn kukunlari bug'latib oksidlab olingan ZnO yupqa qatlamining FL spektri tasvirlangan. Asosiy spektral chiziq 330–400 nm (3.76-3.10 eV) oralig'ida joylashgan bo'lib, bu yuqori sifatli ZnO monokristal tuzilmasiga xosdir. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ZnO yupqa qatlamlarida asosiy FL chizig'i Lorens konturiga yaqin bo'lib, maksimumi 373,4 nm to'lqin uzunligida (3,32 eV) kuzatiladi, bu esa ZnO ning taqiqlangan zonasi kengligiga mos keladi. Bu cho'qqining mavjudligi materialning yuqori kristall fazaga ega ekanligini va defektlar sonining minimal darajada ekanligini bildiradi. Spekrda asosiy cho'qqidan tashqari kichik fluktuatsiyalar ham kuzatiladi. Ushbu fluktuatsiyalar

qatlamda ayrim defektlar, xususan kislorod bo'shliqlari va panjara nuqsonlari mavjudligini ko'rsatadi. Bunday defektlar nurlanishli rekombinatsiya jarayonlarida ishtirok etib, asosiy spektral chiziqdan tashqari fon nurlanish paydo bo'lishiga sabab



**5-rasm. Shisha taglikka rux metalini havoda termik bug'latib olingan sof ZnO yupqa qatlamining fotoluminesensiya spektri.**




**6-rasm. Shisha taglikka vakumda termik bug'latib olingan ZnO:B yupqa qatlamlarining fotoluminesensiya spektrlari.**

bo'ladi.

6-rasmda vakumda termik bug'latish usuli bilan shisha taglikka olingan B bilan legirlangan ZnO:B yupqa qatlamlarining FL spektrlari B atomining 1, 2, 3 va 5 % miqdorlari uchun keltirilgan. Rasmdan ko'rinadiki, B kirishmasi kiritilgan ZnO yupqa qatlamlarining FL spektrlarida 370–420 nm (3.35–2.96 eV) oraliqdagi asosiy spektral chiziqdan tashqari 475–580 nm (2.61–2.14 eV) oraliqda joylashgan maksimumi  $\lambda=525$  nm ( $h\nu=2.36$  eV) bo'lgan qo'shimcha spektral chiziq paydo bo'ldi. Tabiiyki, bu spektral chiziq borning ZnO taqiqlangan zonasida hosil qilgan donor kirishmaviy sathi ( $E_c-2.36$  eV) orqali ro'y berayotgan qo'shimcha rekombinatsion (donor-valent zona) nurlanish bilan bog'liq. Bu nurlanishning maksimal intensivligi xususiy (zona-zona) nurlanish spektral maksimumidan qariyb 6 marta kichik, spektral yarim kengligi esa 2 barobar katta. Shuni takidlash joizki, toza ZnO da asosiy FL cho'qqisi 3,27 eV energiyada joylashgan bo'lsa, 1% B kirishmasi kiritilganda bu cho'qqi 3,18 eV ga siljiydi, 5% B kirishmasida esa 3,10 eV ga ( $\sim 80$  meV) siljiydi. Bu siljishlar ZnO kristall panjarasidagi deformatsiyalar va defekt holatlarining ortishini ko'rsatadi. Optimal kirishma miqdori 3% B bo'lib (3,16 eV), bu holatda FL cho'qqisi eng yuqori nurlanish rekombinatsiya samaradorligiga ega. Xuddi shuningdek, B kirishmaviy nurlanish bilan bog'liq spektral chiziq ham B miqdoriga qarab spektrning katta to'lqinlar sohasiga siljishi hamda har ikkala spektral maksimumni pasayishi kuzatiladi. Bu natijalar B kirishmasining ZnO ning optik xossalriga ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Natijalar ZnO yupqa qatlamlarining optik xossalari va sifatini baholashda FL spektrining muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

**Dissertatsiyaning “n-ZnO/p-Si, “n-ZnO:B/p-Si geterostrukturalarni olish texnologiyasi va ularning elektrofizik, optik va fotoelektrik hususiyatlarini tadqiq etish” nomli III bobida n-ZnO, n-ZnO:B va p-Si asosida geterostrukturalar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan hamda ularning elektrofizik, fotoelektrik va**



**7-rasm. Ni-ZnO/p-Si-Ni geterostrukturaning sxematik tuzilishi.**

optik xossalari tizimli ravishda o‘rganilgan. Ushbu geterostrukturalarni vakuum muhitida hosil qilish texnologiyasi yuqori sifatli, defektsiz va bir jinsli yupqa qatlamlarni yaratishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon murakkab texnologik bosqichlar ketma-ketligidan iborat. Har bir bosqichda strukturaning morfologik yaxlitligi, kristall tuzilish, interfeys holati va o‘tkazuvchanlik xossalarini nazorat qilish orqali geterostrukturaning yakuniy parametrlarini optimallashtirish maqsad qilib olingan. 7-rasmda

tasvirlangan Ni-ZnO/p-Si-Ni geterostruktura tuzilmasi yarimo‘tkazgichli qatlamlar(sandvich struktura) asosida tashkil etilgan bo‘lib, unda: yuqori va pastki kontaktlar sifatida nikel (Ni) qatlamlari, oraliq qatlamlar sifatida ZnO yoki ZnO:B hamda p-Si qatlamlar ishlatilgan. Ushbu struktura vertikal yo‘nalishda tok o‘tkazuvchi bo‘lib, uning elektrofizik xossalari va barqaror kontakt hosil qilish holati optoelektron qurilmalarda qo‘llanish uchun ahamiyatlidir.

n-ZnO/p-Si geterostrukturasini shakllantirishda asosiy yarim o‘tkazgich qatlam bo‘lib xizmat qiluvchi ZnO plenka termik bug‘latish usuli yordamida p-tip kremniy taglikda o‘stirilgan. Bu jarayonda 2-bobda bayon etilgan texnologik yondashuv asos qilib olingan bo‘lib, unda rux metali havoda oksidlanish orqali ZnO hosil qilinadi. O‘zgaruvchan harorat va vaqt parametrlarini optimallashtirish orqali yuqori sifatli ZnO yupqa qatlam hosil qilindi. Bunda kremniy taglik 300 °C gacha qizdirilgan holda, 575 °C da bug‘lanayotgan rux bilan qisqa muddat (60 soniya) ta’sirlashtirildi. Rux bug‘lari taglik sirtiga cho‘kib, havodagi kislorod bilan reaksiyaga kirishib, ZnO plenkasi shakllanadi. Olingan ZnO qatlam n-tipli o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lib, u p-tip Si bilan bevosita kontaktga kirganida p–n o‘tishli geterostruktura hosil bo‘ladi. Ushbu strukturada interfeys sohasi va potensial to‘siq shakllanib, zaryad tashuvchilarning selektiv transporti uchun qulay elektron sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, hosil bo‘lgan ZnO yupqa qatlam yuqori kristallik darajasi va barqaror fazaviy tuzilishga ega bo‘lib, geterostruktura elektrofizik va fotoelektrik xossalarining yaxlit holatda namoyon bo‘lishiga asos yaratadi.

Ni-ZnO:B/p-Si-Ni geterostruktura olish jarayonida ZnO:B qatlamning qalinligi doimiy nazorat ostida bo‘lishi kerak. Odatda, kvarts kristalli monitorlar yordamida qalinlik o‘lchanadi va o‘stirish jarayoni davomida qatlamning bir tekis o‘sishi ta’minlanadi. ZnO:B qatlamning optimal qalinligi 700-900 nm oralig‘ida bo‘lib, bu struktura sifatini oshirishga xizmat qiladi. Qalinlikni nazorat qilishda absolyut xatolik  $\pm 10$  nm dan oshmasligi maqsadga muvofiq.

Ni-ZnO/p-Si-Ni va Ni-ZnO:B/p-Si-Ni geterostrukturalarda ZnO va ZnO:B yupqa qatlamlarning elektrofizik xossalari alohida o‘rganiladi. Xususan, Holl o‘lchashlari yordamida elektronlar konsentratsiyasi, harakatchanligi va turi (n- yoki

p-tip) aniqlandi. O'lchovlar xona haroratida (300 K) doimiy magnit maydoni sharoitida klassik to'rt kontaktli sxema asosida amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda, geterostrukturalardagi ZnO va ZnO:B yupqa qatlamlarning burchaklarida elektr kontaktlar olindi. Kontaktlar orqali barqaror tok uzatildi va unga perpendikulyar yo'nalishda magnit maydon berildi. Natijada hosil bo'lgan Holl kuchlanishi  $U_H$  raqamli voltmetr yordamida o'lchandi.

O'lchangan qiymatlar asosida Holl koeffitsienti quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$R_H = \frac{U_H \cdot d}{I \cdot B}, \quad (1)$$

bu yerda  $d$  – qatlam qalinligi,  $I$  – namunadan o'tayotgan tok kuchi,  $B$  – magnit maydon induksiyasi. Holl koeffitsienti yordamida zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi aniqlandi:

$$n = \frac{1}{qR_H}, \quad (2)$$

$q$  – namunadagi elementar tok tashuvchi zarrachaning elektr zaryadi. Bundan tashqari, solishtirma elektr o'tkazuvchanlik  $\sigma$  qiymatlarini Om qonuni asosidagi

$$\sigma = \frac{Il}{daU}$$


ifodadan aniqlangach, harakatchanlik quyidagi formula bilan hisoblab chiqildi:

$$\mu = R_H \cdot \sigma. \quad (3)$$

O'lchov natijalariga ko'ra, B bilan legirlangan ZnO yupqa qatlamlarda zaryad tashuvchilarning harakatchanligi 5–7  $\text{sm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$  dan 32–35  $\text{sm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$  gacha ortganligi aniqlandi. Zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi esa  $10^{18} \text{ sm}^{-3}$  atrofida qayd etildi. Holl koeffitsientining manfiy qiymati esa qatlamlarning n-tipli o'tkazuvchanlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Bu esa ZnO strukturasi B atomlarining kristal panjara

tugunlariaro holatda joylashib, donor sathlarini hosil qilganini tasdiqlaydi.

8-rasmda kremniy taglikka Zn metalini havoda termik bug'latib olingan Ni-ZnO/p-Si-Ni geterostrukturaning VAX keltirilgan. Rasmdan ko'rinadiki, ushbu VAX ideal p-n diod harakteristikasiga (eksponensial qonuniyatga mos tutash chiziq) juda yaqin. Geterodiodning to'g'rilash koeffitsienti 250 ga yaqin. Geterostruktura musbat kuchlanish berilganda, tok oqimi elektronlarning monopolyar injeksiyasi natijasida yuzaga keladi deyish mumkin (9-rasmga qarang. Geterocheharada



**8-rasm. Zn ni havoda termik bug'latib olingan Ni-ZnO/p-Si-Ni geterostrukturaning VAX. T=300 K.**

valent zonalarning uzilishi tufayli teshiklar uchun  $\Delta E=2.1$  eV potensial barrier mavjud). Grafikda kuchlanishning to‘g‘ri yo‘nalishda ortishi tok kuchining eksponensial o‘shishiga olib kelishi, teskari yo‘nalishda esa oqimning juda kichik qiymatlarda qolishi yaqqol ko‘rinib turibdi. Tahlillar geterostruktura orqali tok o‘tish mexanizmidagi tok oqimini cheklovchi tuzoq sathlarning dielektrik ichida va dielektrik-yarimo‘tkazgich chegarasida mavjudligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Olingan natijalardan ZnO/p-Si geterostrukturalarining VAX chiziqlari GaAs va GaP tagliklariga nisbatan yuqoriroq to‘g‘rilash koeffitsienti, kamroq teskari oqim zichligi va barqarorroq diod xarakteristikalarini bilan ajralib turishi kelib chiqadi. Bu esa kremniy asosidagi geterostrukturalarning interfeys sifatining yuqoriligi, kontakt potensialining optimal darajada bo‘lishi, va barrier xususiyatlarining samaradorligi bilan izohlanadi.

Ni-ZnO/p-Si-Ni geterostrukturasining VAX larini tahlil qilishda yarimo‘tkazgich o‘tish zonasidagi zaryad tashuvchilarning xatti-harakatini boshqaruvchi nazariy modellarga e‘tibor berish muhimdir. Diodning to‘g‘ri va teskari yo‘nalishdagi kuchlanish ostidagi VAX larini tasvirlaydigan asosiy tenglama bu Shokley ideal diod tenglamasi hisoblanadi:


$$I = I_0 \left( e^{\frac{qU}{nkT}} - 1 \right). \quad (4)$$

Amaliy holatlardagi noidealliklarni hisobga olish uchun tenglama zanjir qarshiligi  $R_S$  va shunt qarshilik  $R_{SH}$  roli e‘tiborga olinadi. Bular diodning ichki qarshiligi tufayli kuchlanish pasayishi va tok oqimi yo‘nalishini hisobga oladi:


$$I = \frac{U - IR_S}{R_{SH}} + I_0 \left( e^{\frac{q(U - IR_S)}{nkT}} - 1 \right). \quad (5)$$

Ushbu tenglamalar Ni-ZnO/p-Si-Ni geterostrukturaning elektr xususiyatlarini tushunish uchun asos yaratadi va VAX larini aniqroq hisoblash imkonini beradi. Bu esa tajriba ma‘lumotlari bilan taqqoslashni amalga oshiradi. Nazariy hisob-kitoblar va tajribaviy natijalar o‘rtasidagi moslik yoki farqlar geterostrukturaning sifatini, interfeys holatlarining mavjudligini va asosiy zaryad tashuvchanlik mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi.

Ni-ZnO:B/Si-Al geterostrukturalarda to‘g‘ri tok oqimi alyuminiy elektrodi musbat qutbga ulanganida yuzaga keladi. Logarifmik koordinatalarda ifodalangan VAX ning to‘g‘ri qismlarining umumiy ko‘rinishi (10-rasm) shuni ko‘rsatadiki, bu holda tok tashuvchilarning monopolyar injeksiyasi sodir bo‘ladi va tok dielektrikdagi hamda dielektrik-yarimo‘tkazgich chegarasidagi elektronlar tufayli



**9-rasm. n-ZnO/p-Si geterostrukturaning sxematik zonaviy diagrammasi.**



**10-rasm. Ni-ZnO:B-Si-Al getero-strukturasiining haroratga bog‘liq VAX quyidagi haroratlarda: 1- 299 K; 2- 321 K; 3- 333 K; 4- 360 K; 5- 380 K.**

fazoviy zaryadlar bilan chegaralanadi. Bunday ulanish sharoitida Ni-ZnO:B/pSi-Al getero-strukturalari orqali tok oqimi ZnO dan injeksiyalangan elektronlar tomonidan tashilishi mumkinligini taxmin qilish mumkin. 10-rasmdan ko‘rinib turibdiki, VAX uchta harakterli qismga bo‘linadi: omik ( $I(U)$ ), kvadratik ( $I(U^2)$ ) va tokning keskin o‘shishi ( $I(U^{m+1})$ ), bu yerda  $m > 2$ ). Ma‘lumki, monopolyar injeksiya holatida VAX ning kvadratik qismidagi bog‘lanish quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$J = \frac{9\varepsilon\mu\theta U^2}{8d^3} \quad (6)$$

Bu yerda:  $\varepsilon$  – dielektrik doimiysi;  $\mu$  – dreyf harakatchanlik;  $U$  – qo‘yilgan kuchlanish;  $d$  – qatlamning qalinligi;  $\theta$  – injeksion faktor.

Agar  $\varepsilon = 8,3$ ,  $\mu \approx 12,0 \text{ sm}^2/\text{Vs}$  va qatlam qalinligi uchun tajribaviy qiymatlar  $d = 1 \cdot 10^{-4} \text{ sm}$ ,  $J = 1,9 \cdot 10^{-2} \text{ A/sm}^2$  va kuchlanish  $U = 30 \text{ V}$  bo‘lsa, quyidagi formula bo‘yicha injeksion faktor  $\theta$  baholangan:

$$\theta = \frac{8Jd^3}{9\varepsilon\mu U^2} = 3,3 \cdot 10^{-7} \quad (7)$$

